



TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN
FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH
JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA ZAMONAVIY TEXNIKA
VOSITALARINI QO'LLASHNING AHAMIYATI

Majidov Jamshed Abdulla o'g'li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15624337>

Annotatsiya. Maqolada ayrim xorijiy davlatlarda transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarini tergov qilishda qo'llanilayotgan ayrim zamonaviy texnika vositalari borasida muallifning fikr-mulohazalari bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: surishtiruvchi, tergovchi, hodisa sodir bo'lgan joy, ko'zdan kechirish, shaxsning huquqlari, shaxsning erkinliklari, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi, yo'l-transport hodisasi.

Аннотация. В статье изложены мнения автора о некоторых современных технических средствах, применяемых в отдельных зарубежных государствах при расследовании преступлений, связанных с нарушением правил безопасности дорожного движения или эксплуатации транспортных средств.

Ключевые слова: дознаватель, следователь, место происшествия, осмотр, права личности, свободы личности, безопасность дорожного движения и эксплуатации транспортных средств, дорожно-транспортное происшествие.

Abstract. The article presents the author's views on certain modern technical means used in some foreign countries in the investigation of crimes related to violations of road traffic or vehicle operation safety rules.

Keywords: Inquirer, investigator, crime scene, inspection, individual rights, individual freedoms, road traffic and vehicle operation safety, road traffic accident.

Bir qator mamlakatlarda YTH natijasida o'lim holatlari aholi sonining qisqarishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan yuritiladigan va har 3-5 yilda bir marta e'lon qilinadigan "Dunyoda yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha hisobot" ("Global Status Report on Road Safety")ga ko'ra, joriy yilda dunyo bo'yicha har 100.000 nafar aholiga nisbatan YTH oqibatida vafot etganlar nisbati 17 nafar shaxsni tashkil qilmoqda. YTH natijasida halok bo'lganlar ulushi AQShda har 100 ming nafar aholiga – 11,1, Rossiyada – 11,2, Germaniyada – 3, Buyuk Britaniyada – 2,8, Yaponiyada – 2,2, Tojikistonda – 19,4, Turkmanistonda – 15,5, Qirg'izistonda – 13,8,





Qozog'istonda – 12,8 nafarni tashkil etmoqda. Yil sayin yo'l transport hodisalarining jadal suratda ko'payib, turli xil usullarda sodir etilayotgani davlatlar tomonidan milliy qonunchilikni rivojlantirish va YTH bilan bog'liq jinoyatlarni samarali ochish va tergov qilishni yanada takomillashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar ishlab chiqish lozimligini ko'rsatmoqda.

Jahonda transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligini buzish jinoyatlarini tergov qilishda qilmishga to'g'ri huquqiy baho berish, xususan, aybning shakli, shikastning xususiyati, sodir etilgan qilmish bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishning mavjudligini aniqlash, murakkab ob-havo sharoitida hodisa joyidagi dalillarni yo'q bo'lib ketishini oldini olish maqsadida hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish, haqiqiy aybdorlarni fosh etishda maxsus bilim va kriminalistik usulardan foydalanish, isbotlanishi zarur bo'lgan holatlar doirasini aniqlash va ular bo'yicha o'tkazilishi talab etilgan tergov va protsessual harakatlar ketma-ketligi (algoritmi)ni ishlab chiqish, tergov harakatlarini o'tkazishning yangi taktik usul va imkoniyatlaridan samarali foydalanish jinoyatlarni tergov qilish faoliyatining samarali tashkil etilishiga to'sqinlik qiluvchi amaldagi qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda yildan-yilga o'lim va og'ir tan jarohati olish bilan bog'liq transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlari oshib borayotgan va turli xildagi dvigatel sig'imi va ot kuchiga ega bo'lgan transport vositalarining yurtimizga kirib kelishi natijasida mazkur turdagi jinoyatlarning sodir etish usullari ham yuqorida ko'rsatilgani kabi o'zgarib borayotgan bir vaqtda, bu sohada yuritilayotgan jinoyat ishlarining an'anaviy usulda tergov qilib kelinayotganligi, xususan, maxsus bilimlardan etarlicha foydalanilmasligi, ishga oid dalillarni to'plashdagi kamchiliklar, ekspert oldiga hal qilinishi uchun ishga ahamiyatli savollarning qo'yilmasligi, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda axborot texnologiyalaridan hamda zamonaviy innovatsion texnik vositalardan samarali foydalanish yo'lga qo'yilmaganligi natijasida oqlov hukmlarining soni ortib borayotganligi (2021-yilda 6 ta, 2022-yilda 8 ta, 2023-yilda 9 ta, 2024 yilda 14 ta) ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilishni takomillashtirish naqadar zarurligini taqozo etmoqda.

Agar Toshkent shahri kabi tirbandlikka tez-tez duch kelinadigan shahar ko'chalarida YTH yuz beradigan bo'lsa, tergovchi yoki surishtiruvchining oldidagi eng muhim masala o'ta qisqa vaqt ichida hodisa sodir bo'lgan joyni





ko'zdan kechirish va yo'lni boshqa transport vositalari erkin harakatlanishlari uchun bo'shatish hisoblanadi. Biroq hodisa joyini o'ta qisqa vaqt ichida sifatli ko'zdan kechirishning jismoniy imkoniyati mavjud emas. Misol uchun o'lchov ishlarining o'zi bir necha o'n daqiqa vaqt oladi. Bilamizki, so'nggi bir necha o'n yilliklarda YTH sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda asosan lentadan o'lchov vositasi sifatida foydalanib kelganmiz. Biroq, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda an'anaviy o'lchash usuli ham, biroz yangiroq boshqa usullar ham ko'plab kamchiliklarga ega. Masalan, yo'lning serqatnovligi, hodisa joyiga ko'plab xodimlar va fuqarolarning kirib-chiqishi, ob-havo va boshqa omillar o'lchov ishlarini to'liq, aniq va sifatli bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, agar YTH sodir bo'lgan joy tozalangandan keyin noto'g'ri yoki etishmayotgan ma'lumotlar mavjud bo'lsa, bu usullarning barchasini dastlabki natija bilan qayta tekshirib bo'lmaydi. Ushbu masalalar 3D skanerlash texnologiyasini joriy etish naqadar muhim va ahamiyatli ekanligini ko'rsatmoqda.

Hozirgi vaqtga kelib, zamonaviy kompyuter va zamonaviy foydalanuvchi interfeysining paydo bo'lishi fotogrammetriyani yirik muassasalar va tadqiqot muassasalaridan tashqarida va kengroq foydalanuvchilar doirasini qamrab olishiga imkon berdi .

Fotogrammetriya - fotosuratlarini tahlil qilish va sharhlash orqali ma'lumot olish texnologiyasi (uch o'lchovli ma'lumotlar yoki sifatli ma'lumotlar) hisoblanadi. Ko'pgina nashrlar YTHni tergov qilishda yaqin masofali fotogrammetriyani qo'llash haqida gapirgan. Konner va Uolton tomonidan olib borilgan tahlillar Texas transport departamenti va politsiya idoralari hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda fotogrammetriyadan qanday foydalanishi mumkinligini o'rganib chiqdi .

Wang va Zhang esa YTH sodir bo'lgan joyni tekshirishda fotogrammetriyadan foydalanishning rivojlanishi va aniqligini muhokama qilgan bo'lsa, LU va LIU o'lchov nuqtalarini qayta qurish uchun ikki yoki undan ortiq fotosuratlardan foydalanish usulini o'rganadilar . Bundan tashqari, Guang-quan and Xu, Hong-guo, Li, Yi-bing, Zhou, Li, Tian, Jian, Li, Jiang and Ding, Tongqiang, Ya-qiao, Shiyuan and Su, Shilin va boshqalar tomonidan kamerani kalibrlash uchun mos yozuvlar nuqtalarini avtomatik aniqlash bo'yicha bir vaqtning o'zida tasvirni qayta ishlash usullaridan foydalanadigan ko'plab tadqiqotlar olib borildi

Shuningdek, ayni vaqtda G'arbiy Evropa mamlakatlarida ham YTH sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda 3D skanerdan foydalanish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan va hozirgi kunda amaliyotga keng joriy qilinishiga erishilgan.





Shuningdek, ayni vaqtda G'arbiy Evropa mamlakatlarida ham YTH sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda 3D skanerdan foydalanish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan va hozirgi kunda amaliyotga keng joriy qilinishiga erishilgan.

Darja Topolšek, Elvis A. Herbjaj va Marjan Sternad kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan fikrlarga ko'ra "YTHni qayta tiklashning maqsadi to'qnashuv dinamikasini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan hodisani qayta tiklashdan iborat bo'lib, bu sud ishlarida dalil sifatida foydalaniladi. YTHni qayta qurish va hodisani namoyish qilish hodisa joyini o'lchashga oid aniq ma'lumotlarni talab qiladi. Biroq, YTH sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bilan bog'liq individual o'lchash vositalari va usullari o'rtasida farqlar mavjud, xuddi ulardan foydalanish darajasi va o'lchash aniqligi o'rtasida farqlar mavjud bo'lganidek. Eng ko'p qo'llaniladigan usul o'lchov lentasi bo'lib, undan keyin umumiy stantsiyalar va lazer diapazoni o'lchagichlar bilan o'lchovlar o'tkaziladi, fotogrammetriya ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shaxsiy vositalar va usullarning afzalliklari va kamchiliklari tadqiqotchilarning kerakli soniga, ko'chirishga, o'lchash diapazoniga, yorug'lik va ob-havo sharoitlariga qarab qo'llanilishiga, masofadan o'lchash imkoniyatiga, ma'lumotlarni yig'ish vaqtiga, ko'lamiga, keyinchalik qayta ishlash imkoniyati, to'plangan ma'lumotlar va birinchi navbatda, barcha to'plangan ma'lumotlarning aniqligi va hajmiga ta'sir qiladi. Ikkinchisi sudda YTH ishtirokchilarining aybdorligini yoki aybsizligini isbotlash uchun juda muhimdir, chunki noto'g'ri ma'lumotlar adolatsiz hukmga olib kelishi mumkin. Yuqorida aytib o'tilgan vositalar va usullardan foydalangan holda o'lchashning aniqligi, shuningdek, qaysi biri ishlatilganiga, shuningdek, boshqa omillarga qarab farq qiladi".

Bundan tashqari, S.N. Dumnov aytganidek 3D skaner yordamida jinoyat sodir etilgan joyni skanerlash uchun ketadigan vaqt an'anaviy yozib olish vositalariga nisbatan ahamiyatsizdir .

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytadigan bo'lsak, nazarimizda agar ko'plab moddiy izlar (yo'l-transport hodisalari, samolyot halokatlari, zo'ravonlik jinoyatlari va boshqalar) bilan tavsiflangan jinoyatlar tergov qilinsa 3D skanerlarni joriy etish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi. 3D skanerlash texnologiyasidan foydalanish bo'yicha xorijiy tajriba, bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida, ayniqsa, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlari va boshqa jinoyatlar bo'yicha hodisa





THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES

International scientific-online conference



sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish kabi tergov harakatlarini amalga oshirishda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin

